

Xorazm arxeologik-etnografik yoshlar ekspeditsiyasi o'z ishini boshladi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 12-13-dekabr kunlari Xorazm viloyatiga tashrifi davomida berilgan topshiriqlar ijrosini ta'minlash maqsadida Xorazm Ma'mun akademiyasi arxeolog olimlari Xorazm arxeologik-etnografik yoshlar ekspeditsiyasining (XAEYE) dasturini ishlab chiqishdi. Joriy yilning 1-aprel sanasidan boshlab Qal'ajiq qal'ada arxeologik ekspeditsiya ishlari boshlab yuborildi.



Qal'ajiq qal'a Xorazm viloyatining Bog'ot tumanidan janubi-g'arbda, Hazoraspdan 25 km uzoqlikda Qoraqumning qum barxanlari chegarasida joylashgan mil. avv. IV asrga oid yodgorlikdir.

Ekpeditsiya tarkibida Xorazm Ma'mun akademiyasi yetakchi ilmiy xodimi, t.f.n. R. Abdrimov, katta ilmiy xodim B. Sa'dullayev, tarix fanlari nomzodi, dotsent Q. Sobirov, tarix fanlari bo'yicha PhD Y. Karimov, akademiyaning tayanch doktorantlari Sh. Raximov, Sh. Ismoilov va J. Abdullayevlar hamda Urganch davlat universiteti Tarix fakultetining bir guruh talabalari ishtirok etishmoqda.



Ekspeditsiya ishlariga t.f.n. R. Abdrimov, t.f.n. Q. Sobirov, katta ilmiy xodim B. Sa'dullayevlar rahbarlik qilishmoqdalar.

Ekspeditsiyaning birinchi kuni Xorazm arxeologik-etnografik yoshlar ekspeditsiyasining dasturida belgilangan maqsad va vazifalardan kelib chiqib talaba yoshlarga arxeologik ekspeditsiya ishlarini tashkil etish uslublari, yo'nalishlari va o'ziga xos qonuniyatlari yuzasidan seminar trening tashkil etildi. Unda talabalar arxeologik tadqiqot ishlariga doir kerakli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishdi.



Ertasiga Xorazm arxeologik-etnografik yoshlar ekspeditsiyasi o'zining amaliy, ya'ni arxeologik tadqiqotlar ishlarini boshlab yuborishdi.

Ekspeditsiya davomida Xorazm viloyat Ma'naviyat va ma'rifat markazi tomonidan ma'naviy-ma'rifiy tadbir tashkil etildi. Tadbirda Xorazm folklor namunalarining mohir ijrochilari, xalqimiz ardog'idagi san'atkorlar O'zbekiston xalq baxshisi Normat Abdullayev, Yetmishvoy Abdullayev va Abdusharip Quryazovlar ekspeditsiya ishtirokchilariga ma'naviy hordiq ulashdilar.

Xorazm arxeologik-etnografik yoshlar ekspeditsiyasining arxeologik tadqiqotlari ko'tarinki ruhda va qizg'in davom etmoqda. Rejaga ko'ra, ekspeditsiya ishlari bir oy davom etishi ko'zda tutilgan.